

MOSHNING ASOSIY ZARARKUNADALARIGA QARSHI KIMYOVIY PREPARATLARNING SAMARADORLIGI

Xolmurodov Erkin Avazovich, q/x.f.d., professor

Orcid ID: 0000-0003-0425-7375

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna, q/x.f.f.d., dotsent

Orcid ID: 0000-0003-0425-7375

Asqarova Munisxon Shukurali qizi, talaba

Orcid ID: 0000-0003-0425-7375

Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya. Tadqiqotlarda mosh ekinida g`o`za tunlamiga qarshi kimyoviy preparatlardan Killer Extra 10% k.e.-0,25 l/ga sarf miqdorida qo`llanilgan variantda biologik samaradorlik 83,7% ni, Dalate plyus, 10% k.e. (etalon) – 0,25 sarf miqdorida qo`llanilganda eng yuqori biologik samaradorlik 86,0% ni tashkil qildi, o`rgimchakkanaga qarshi Killer Extra preparati 10% k.e. - 0,25 l/ga sarf miqdorida qo`llanilganda esa 88,8% ni, Dalate plyus, 10% k.e. preparati (etalon) qo`llanilganda 91,5% biologik samaradorlikka erishilgan.

Kalit so`zlar: mosh, zararkunanda turlari, dominant tur zararkunanda, iqtisodiy zarar miqdor, qarshi kurash, biologik samaradorlik.

Аннотация. В исследованиях Киллер Экстра 10% к.э. применяемом в норме расхода 0,25 л/га, использовался против хлопковой совки в посевах маша - биологическая эффективность составляет 83,7%, Далате плюс, 10% к.э. при применении в норме 0,25% – наибольшая биологическая эффективность составила 86,0%, при использовании в норме 0,25 л/га препарата Киллер Экстра – 10% к.э. против паутинового клеща биологическая эффективность составлял 88,8%, Далате плюс 10% к.э. при применении в норме 0,25% на 14-й день применения препарата достигнута биологическая эффективность 91,5%.

Ключевые слова: маш, виды вредителей, доминирующие виды вредителей, объем экономического ущерба, борьба, биологическая эффективность.

Abstract. In studies, Killer Extra 10% EC applied at a rate of 0.25 l/ha was used against cotton bollworm in mung bean crops - the biological efficiency was 83.7%, Dalate Plus, 10% when applied at a rate of 0.25% - the highest biological efficiency was 86.0%, when using the drug Killer Extra - 10% at a rate of 0.25 l/ha against spider mites, the biological effectiveness was 88.8%, Dalate plus 10% when using at a rate of 0.25% on the 14th day of drug use, the biological effectiveness of 91.5% was achieved.

Keywords: mung bean, pest species, dominant pest species, economic damage, control, biological effectiveness.

Kirish. Dukkakli ekinlarning yalpi hosilini ko`paytirish va sifatini yaxshilashning asosiy chora-tadbirlaridan biri zararli organizmlardan himoya qilishdir. Uning muvaffaqiyati dukkakli ekinlarni zararkunandalar, kasalliklar va begona o`tlardan himoya qilish, bu ekinni yetishtirishning tuproq va iqlim zonalarining xususiyatlarini hisobga olgan holdagi chora-tadbirlarga bog`liq.

Mosh o`simligida eng ko`p uchraydigan zararkunandalaridan biri shiralar, o`rgimchakkana, beda qandalasi, donxo`r bruxuslar, g`o`za tunlami, tuganak uzunburunlar va boshqalar zararli bo`lganligi sababli har yili hosilning 35-45%i nobud bo`ladi [2; 45-46-b.]. Moshni zararkunandalardan muvaffaqiyatli himoya qilash uchun dukkakli ekin maydonlarining tuproq va iqlimiy xususiyatlarini hisobga olgan holda bir qator chora-tadbirlar ko`riladi [3; 192-193-b.]. Shu bilan birga, nazorat usullarini qo`llashning muvaffaqiyati ularni himoya choralarining umumiy tizimida muntazam ravishda qo`llashga bog`liq [5].

Pestsidlardan foydalanish samaradorligi va hajmi qishloq xo`jaligida hosildorlikning umumiy darajasi bilan bog`liq [1; 38-b.].

Qisqacha sharhdan ko`rinib turibdiki, moshning barcha zararkunandalari muhim ahamiyatga ega va ular bilan kurashish uchun tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak. Shu bois oldimzigga mosh zararkunandalariga qarshi yangi istiqbolli dori vositalarini topish va tanlash vazifasi qo`yildi.

Materiallar va usullar. Tadqiqot ertalab havo harorati 24°C dan yuqori bo`lmagan va shamol tezligi 2 m/sek bo`lgan paytda amalga oshirildi. Jarayonni tashkil etish, keyingi hisobga olish va biologik samaradorlikni hisoblash metodologiyasi Xo`jaev Sh.T. Insektitsid, akaratsid, biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash bo`yicha uslubiy ko`rsatmalar (2004) amalga oshirildi [5].

Natijalar va munozara. Qibray tumanining iqlim sharoiti har xil turdagi zararkunandalarning rivojlanishi va bir vaqtning o`zida ko`payishi uchun qulay sharoit yaratib, ularning zararliligi natijasida alohida xo`jaliklarda don-dukkakli ekinlarning yillik nobud bo`lishi 30 foizdan ortiqni tashkil etadi.

Killer Extra 10% k.e. preparatini sinab ko`rish uchun tajriba 2024 yil iyul oyining oxiri - avgust oyi boshida mosh zararkunandalarining ommaviy rivojlanishi davrida amalga oshirildi.

Killer Extra 10% k.e. preparatining biologik samaradorligi natijalari g`o`za tunlamiga qarshi 0,25 l/ga iste`mol miqdori 1-jadvalda keltirilgan.

Xulosa. Tadqiqotlarda mosh ekinida g`o`za tunlamiga qarshi kimyoviy preparatlardan Killer Extra 10% k.e. - 0,25 l/ga sarf miqdorida qo`llanilgan variantda biologik samaradorlik 83,7% ni, Dalate plyus, 10% k.e. (etalon) – 0,25 sarf miqdorida qo`llanilganda eng yuqori biologik samaradorlik 86,0% ni tashkil

**Killer Extra 10% k.e. ning g'oz'a tunlamiga qarshi biologik samaradorligi.
Toshkent viloyati, Qibray tumani. 2024 yil avgust**

№	Variantlar	Preparatning sarf miqdori, l/ga	Hisoblash kuniga 100 ta o'simlik uchun zararkunandalarning o'rtacha soni				Biologik samaradorlik, %		
			Dori sepilguncha	Dori sepilgandan keyin, kun					
				3	7	14	3	7	14
1.	Killer Extra 10% k.e.	0,5	11,7	3,7	2,5	2,4	69,8	81,5	83,7
2.	Dalate plyus, 10% k.e. (etalon)	0,5	12,5	3,8	2,9	2,2	71,0	79,9	86,0
3.	Nazorat (ishlov berilmagan)	-	12,1	12,7	14,0	15,3	-	-	-

**Killer Extra 10% k.e. preparatining mosh ekinida o'rgimchakkanaga qarshi biologik samaradorligi.
Toshkent viloyati, Qibray tumani. Ishchi suyuqlik iste'moli 300 l/ga, 2024 yil iyul - avgust.**

№	Variantlar	Preparatning sarf miqdori, l/ga	Zararkunandalarning oʻrtacha 1 bargdagi soni, dona					Biologik samaradorlik, %			
			Dori sepilguncha	Dori sepilgandan keyin, kun							
				1	3	7	14	1	3	7	14
1.	Killer Extra 10% k.e.	0,25	38,4	18,0	16,2	11,7	7,0	57,4	64,3	77,3	88,8
2.	Dalate plyus, 10% k.e. (etalon)	0,25	40,7	23,8	16,3	10,3	5,6	46,9	66,1	81,1	91,5
3.	Nazorat (ishlov berilmagan)	-	40,3	44,4	47,7	54,2	65,8	-	-	-	-

qildi, o'rgimchakkanaga qarshi Killer Extra preparati 10% k.e. plyus, 10% k.e. preparati (etalon) qo'llanilashning 14-kuni 91,5%
- 0,25 l/ga sarf miqdorida qo'llanilganda esa 88,8% ni, Dalate biologik samaradorlikka erishildi.

ADABIYOTLAR:

1. Tanskiy V.I., Tuleeva A.K. Bahorgi bug'doy ekinlarida pestitsidlarning iqtisodiy samaradorligi // O'simliklarni himoya qilish va karantini. – 2007 yil. – B. 38-39.
2. Xolliiev A. "Dukkakli don (no'xat, loviya, mosh) ekinlarining asosiy zararkunandalari". // "Agro ilm" jurnali.-Toshkent, 2014. -№4(32). B. 45-46.
3. Холлиев А., Махмудова Ш.А., Иргашева Н. Меры борьбы против зерновок на зернобобовых культурах. / Сборник трудов международной научно-практической конференции на тему «Наука, производства, бизнес: современное и пути инновационного развития аграрного сектора на примере Агрохолдинга «Байсарке-Агро»» (4-5 апреля 2019 г.). – Казахстан, Алматы, 2019. – С. 192-193.
4. Xo'jaev Sh.T. Insektitsid, akaratsid, biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar. Toshkent. 2004 yil.